

## O'zbekiston Yoshlar Forumi 2024 uchun loyiha taklifi

Tayyorladi: M.Shermatov

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2025-yilning "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi O'zbekistonning global muammolarga befarq emasligini yana bir bor namoyon etadi. Ushbu qaror hukumatimizning atrof-muhitni muhofaza qilish mas'uliyatini chuqr anglayotgani va davlat dasturlarida yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari kabi zamonaviy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratayotganini tasdiqlaydi.

Yaqinda mamlakatimizda yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish va kelgusi loyiha ob'ektlarining qurilishiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. Tadbir davomida Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabiston, Xitoy, Germaniya hamda Turkiya kabi mamlakatlar bilan yuqori darajadagi hamkorlik aloqalariga alohida urg'u berildi.

Ta'kidlash lozimki, Turkiya, energetika sohasida qariyb 60-70 foiz importga bog'liq bo'lishiga qaramasdan, so'nggi yillarda yashil energetika yo'nalishida yuksak muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Xususan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha mamlakatning yetakchi hududlari – Izmir va Konya viloyatlarida bu soha keng rivojlangan.

Shu munosabat bilan Turkiyada ta'lif olayotgan o'zbek talabalarining malakasini oshirish hamda ularni Turkiyaning ushbu sohadagi yetakchi korxona va tashkilotlarida amaliyat o'tash imkoniyati bilan ta'minlash bo'yicha ikki tomonlama shartnomalar tuzish katta ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bunday imkoniyatlar nafaqat Turkiyada tahsil olayotgan o'zbek talabalar, balki O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida o'qiyotgan talabalar va energetika sohasida faoliyat olib borayotgan yosh mutaxassislar uchun ham yaratilishi lozim. Bu esa ularning amaliy bilim va tajribalarini boyitishga, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Taklif qilinayotgan loyiha Yashil iqtisodiyot va ta'lif hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib "Yashil Ta'lif Hamkorlik Dasturi" deb nomlanadi.**

O'zbekiston va Turkiya o'rtaida sohasidagi tajriba almashinuvini kengaytirish maqsadida Turkiyadagi ilg'or yashil energiya ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan amaliyat shartnomalarini yo'lga qo'yiladi.

Bunda: Turkiyada tahsil olayotgan o'zbek talabalarini birinchi navbatda amaliyatga jalb qilinadi.

Keyinchalik O'zbekistondagi oliy ta'lif muassasalarini talabalarini va sohada faoliyat yuritayotgan yosh kadrlar uchun ham maxsus amaliyat dasturlari tashkil etiladi.

Hozirgi kunda Turkiyada tahsil olayotgan O'zbek talabalar soni 6247 nafar, xususan, birgina Istanbul shahrining o'zida 3060 nafarni tashkil qilmoqda. (Turkiya Ta'lif Vazirligi Oliy Talim Kengashi ma'lumotlariga ko'ra).

Ulardan bir qismi muhandislik, energetika va texnologiya sohalariga ixtisoslashgan.

Loyihaning mohiyatini va aniqlashtirilgan jarayonini **AKSA Enerji shirkati va Istanbuldagi O'zbek talabalar** qiyosida quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

**Avvalo AKSA Enerji haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak:** AKSA Enerji 1997-yilda tashkil etilgan bo'lib, Turkiyaning yetakchi energetika kompaniyalaridan biri hisoblanadi.

Kompaniya shamol, quyosh, tabiiy gaz, dizel va termal energiya ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Bugungi kunda AKSA Enerji faqat Turkiyada emas, balki Osiyo, Afrika va boshqa mintaqalarda ham faoliyat yuritadi.

Markaziy binosi Istanbulning Beshiktash tumanida joylashgan.

Hamkorlik modeli quyidagicha: Vakillarimiz tomonidan AKSA Enerji kompaniyasi bilan o'zaro quyidagi faoliyatlar bo'yicha shartnomalar imzolanadi:

- Amaliyot dasturlari: AKSA Enerjining Istanbuldagi filiallari orqali o'zbek talabalarini qisqa va uzoq muddatli amaliyot dasturlariga jalb qilish;
- Yashil energetika bo'yicha treninglar: Yashil energiya sohasi va texnologiyalari bo'yicha mahorat darslari va mentorlik kurslari o'tkazish;

### **Kutilayotgan natijalar esa:**

#### 1. O'zbekiston yoshlari uchun tajriba:

AKSA Enerji va boshqa kompaniyalar vositasida Turkiyada tahsil olayotgan o'zbek talabalar zamonaviy texnologiyalar va ularning boshqaruv tizimlarini o'rganishadi. Bu ayniqsa jadidlarimizda ham kuzatilganidek chet eldan bilim va tajriba bilan qaytish deganidir.

#### 2. Ikki davlat o'rtaqidagi hamkorlikning kengayishiga sabab bo'ladi:

Turkiya va O'zbekiston o'rtaqidagi iqtisodiy hamkorlik mustahkamlanadi. Jumladan, taraflar uchun ikki tilli va malakali kadrlar yetishib chiqadi;

#### 3. Uzoq muddatli rivojlanish:

O'zbekistonning yashil energetika sohasidagi uzoq muddatli dasturlarining rivoji uchun yoshlarimiz AKSA Enerji va boshqa kompaniyalarning tajribasidan foydalanishadi.

Yashil iqtisodiyot bo'yicha xalqaro standartlarni o'zlashtirishadi.

### **Loyihaning istiqbollari quyidagicha:**

Bu loyiha faqat Istanbuldagi o'zbek talabalariga emas, balki kelgusida O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston va Turkiya o'rtaqidagi energetika bo'yicha amaliyot va trening dasturlari uzoq muddatli hamkorlikning poydevorini yaratadi va O'zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasini tezlashtiradi.

Bundan tashqari huddi shu model bilan boshqa davlatlardagi vakilliklar tomonidan erishilgan shartnomalar nafaqat energetika balki boshqa sohalarda ham katta foyda keltiradi deb ayta olamiz.